

**TURLI XIL RUHIY VA JISMONIY NUQSONLAR HAMDA ULARNI  
BARTARAF QILISH HAQIDAGI ABU ALI IBN SINONING  
FIKRLARIDAN ZAMONAVIY MAXSUS PEDAGOGIKADA  
FOYDALANISH**

*CHDPU Maxsus pedagogika(Tiflopedagogika)*

*yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

***Erkinboyeva Dilnura Sardor qizi***

***Anototsiya:*** Ushbu maqolada Abu Ali Ibn Sino asarlari va ularning qisqacha bayonoti, turli xil nuqsonlarga tashxis qo'yish, oldini olish, ularni davolash haqida yozgan risolasi tahlili, pedagogik qarashlari asosini bolaning tarbiyasi, salomatligi eng muhimi uning ruhiyatini o'rganish ta'lim tarbiyada tipologik xususiyatlarini e'tiborga olish zarurligi haqidagi fikrlari keltirib o'tildi.

***Kalit so'zlar:*** Abu Ali ibn Sino, Tib qonunlari, kasaliklar, tiflopedagogika, surdopedagogika, oligofreniyapedagogika, logopediya.

Jahon tibbiyotida o'z mavqeini muhrlagan Ibn Sinoning ilmiy merosi g'oyat boy va bebaho xazinadir. Yurtimizda Ibn Sinoning ishlarini ko'plab tibbiyot hamda pedagogika sohasidagi olim va professorlar o'rganib kelmoqda. Ibn Sino ta'limoti, tibbiy – pedagogik qarashlari, imkoniyati cheklangan bolalar ta'limiga oid qarashlari yuzasidan maxsus pedagog olimlar tomonidan ko'plab izlanishlar olib borilgan. Xususan, Pedagogika fanlari doktori, professor F.U. Qodirova, U.Y.Fayziyeva va boshqa olimlar o'z tadqiqot ishlarini bajarish jarayonida Ibn Sinoning maxsus pedagogika yo'nalishlariga doir qarashlarini o'rganishgan.

Ibn Sino o'zining asosiy ishi – “Tib qonunlari” nomli 5 jildan iborat asarini yozib tugatgan. Shu asarning aynan 3-kitobida zamonaviy maxsus pedagogikaga oid ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, shu kitobda tafakkurga yetkaziladigan zararli ta'sirlar, uning natijasida kelib chiqadigan oligofrenik kasalliklar

to'g'risida keng to'xtalib o'tadi. U tafakkurning zararlanishiga miya shishlari, undagi organik jarohatlar sabab bo'ladi, deb hisoblaydi.[1]

Ibn Sino kasalliklarni davolashda to'g'ri ovqatlanish muhim o'rin egallashini aytadi. "Salomatlik sirlari" asarida birinchi maqolasining "Turli – tuman xatolar to'g'risida" nomli bandida sharob iste'mol qilish zararlari haqida so'z yuritadi. Ko'p sharob ichish issiq mijozlilarga qon saktasi, tasodifiy o'lim keltirishi; Sovuq mijozlilarni esa asab kasalliklariga duchor qilishi, sovuq sakta, letargiya, falaj titroq (hozirda ilmiy nomi "tetaniya"), yuz falaji va hakoziolar shaklida namoyon bo'lishini aytib o'tgan. Shu bilan birga u "Ko'pchilik aqli zaif, tentak bolalar mayga tobe bo'lgan ota – onalarning zurriyotlaridir" – deb ta'kidlagan.[4] Allomaning bu ta'limoti hozirgi kunda ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni davolash, korreksiyalash yo'llari va yechimlarini topishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Abu Ali Ibn Sinoning tabobat sohasida qilgan ishlari o'sha davr tabobatini bir necha asrlarga ilgarilatdi va ayrim sohalarda hatto hozirgi zamon tibbiyotiga yaqinlashtirdi ham.[1]

Ibn Sinoning daho tabib sifatida surat qozonishining asosiy omillaridan biri – uning tib nazaryasini, xususan, anatomiya – inson gavdasi tuzilishini mukammal bilishidir. Bosh suyagining tuzilishi, tishlarning tuzilishi to'g'risida u Galenga ergashgan holda to'g'ri fikrlagan. Uning ko'z anatomiyasi, ko'rish jarayonining qanday sodir bo'lishi va unda ko'z qorachig'ining roli, ko'z muskullarining joylashishi xususida yozganlari zamonaviy oftalmologiyaga yaqindir[1].

Ibn Sino o'z davrida Sharq va Ovroqada "Shayx ur – rais" "olimlar boshlig'i", "Tabiblar podshohi" va hozirgi davrda G'arbda Avitsenna deb tan olingan.[1]

Ibn Sino Platon, Aristotol, Farobiyning ideal davlat haqidagi g'oyalarini rivojlantirib, o'z asarlarida nuqsonli bolalarning ideal xususyatlarini yoritib berish orqali mehnat organizmning zaruriy sharti ekanligini, inson qobiliyati va iste'dodi namoyon bo'lishining muhim yo'li ekanligini bayon qiladi.[1]

Uning turli yillarda yozilgan tibbiy asarlaridan jamlangan “Salomatlik sirlar” risolasida inson a’zolarida ro’y beradigan turli o’zgarishlar, ularning oldini olish, zararlarini yo’qotish, asab, qorin, jigar, ko’z, tish kasalliklarini davolash to’g’risida ham hikoya qilinadi.[4]

“Judiya risolasida ham turli kasalliklar va ularni davolash usullari aytilgan. Xususan, risolaning birinchi bobi “Ko’zni davolash haqida”deb nomlanadi. [2] Ibn Sino o’z risolasida ta’kidlab o’tgan ko’z nuqsonlari, ya’ni, noxuna va ramad kasalliklari hozirgi davrda ilmiy nomlar bilan ataladi. Xususan, olim tomonidan ko’rish nuqsonini keltirib chiqaruvchi ko’z kasalliklaridan glaukoma, traxoma, konyuktivit, miopiya va boshqa ko’z kasalliklari haqida ma’lumotlar bergan va davolash bo’yicha tavsifialarni keltirib o’tgan. Aynan shu ma’lumotlar hozirgi kunda Tiflopedogogika sohasida ancha samara bermoqda. Chunki, imkoniyati cheklangan bolaning kasalligiga to’g’ri va aniq tashxis qo’yilishi, bolani korreksiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari Ibn Sinoning noyob asarlarida Surdopedogogikaga tegishli bo’lgan ma’lumotlar, quloq kasalliklarining sabablari va davolari yozib qoldirilgan. Ibn Sino quloq kasalliklarini tug’ma va tabiiy quloq kasalliklariga ajratgan.[5] O’z o’rinida ularni ham tarmoqlarga bo’lib ko’rsatgan. Bu kasalliklar bugungi kunda Ibn Sino aytgan nom bilan emas boshqacha nom bilan o’rganilib kelinmoqda.

Ibn Sino klasifikatsiyasi bo’yicha tug’ma quloq kasalliklari: Samam – eshituv yo’li berkligi (tug’ma karlik); Tarsh – eshituv yo’lida nuqson borligi tufayli nisbiy karlik; Vavr – eshituv nervining arteziyasi.

Tabiiy quloq kasalliklari: Miya zararlanishiga bog’liq kasalliklar; Yaqin joylashgan a’zolar zararlanishiga bog’liq kasalliklar; Eshtish quvvatiga bog’liq kasalliklar; Asabda bo’ladigan ofatlar; Teshikda bo’ladigan ofatlar, tabiiy quloq kasalliklari hisoblanadi.[5]

Avitsenna insonning ruhiy faoliyati uning moddiy ildizlari va buzilishlarining sabablarini ko’rsatish bilan cheklanmaydi, balki ruhiy kasalliklarini keltirib chiqaruvchi bu buzilishlarning muvaffaqiyatli davolash

yo'llarini izlab topadi. Olimning fikricha, nutq a'zolarining kasallanishi, ya'ni til kasalliklari logopedik va surdopedagogik nuqsonlarni keltirib chiqishini izohlaydi.[1] Shu jumladan, "Ayrim vaqtda soqovlik va nutqning boshqa buzilishlari, miyaning tilga boruvchi va uni harakatga keltiruvchi nervlarni chiqish joyining jarohatlanishi oqibatida kelib chiqadi", - deb yozadi buyuk tabib.[1]

Alloma asarlarida miya faoliyatiga muhim o'rin ajratadi. Ibn Sino miya insonning bosh tafakkur organi ekanini aytadi. U birinchi bo'lib psixik funksiyalar miyadagi ma'lum markazlar faoliyatiga bog'liq degan fikrni ilgari suradi.[1] Shuningdek, bosh miyada ikki xil suyuqlik bo'lishini, shu suyuqlik turiga qarab inson shaxsiyatining o'zgarishi, xarakter va mijozlarini farqlab bergan. Inson bosh miyasidagi limbik tizim hissiy-irodaviy sohani, kayfiyat va hissiyotni boshqaradi. Limbik tizim ko'rish analizatori bilan bo'g'langan va bu aloqalarning buzilishi emotsional reaksiyaning, kishining autistik sohasining buzilishiga olib keladi. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, Ibn Sino hozirgi kunda keng taqalgan "Autizm" sindromini kelib chiqishini bosh miyadagi limbik tizim bilan bog'liqligini X – XI asrlardayoq bilgan. Xulosa qilib aytganda, Ibn Sinoning ilmiy ishlari bugungi kun tibbiyoti, va maxsus pedogogikasini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etgani, turli kasalliklar, nuqsonlarning kelib chiqish sababi, ularni bartaraf etish bo'yicha qoldirgan qimmatli ma'lumotlarini o'rgangan olimlarning fikrlari bayon qilindi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. F.U.Qodirova. D.A.Pulatova. "Inklyuziv ta'lim: Nazariya va amaliyot" 141-147-b.
2. [https://odam.uz/Qiziqarli/tabobat-ilmining-sultoni-abu-ali-ibn-sino-hayoti-va-faoliyati?sa=X&ved=2ahUKEwinto\\_xI\\_nAhVRExoKHS-2Dq0QFjAFegQIBhAB](https://odam.uz/Qiziqarli/tabobat-ilmining-sultoni-abu-ali-ibn-sino-hayoti-va-faoliyati?sa=X&ved=2ahUKEwinto_xI_nAhVRExoKHS-2Dq0QFjAFegQIBhAB)
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/tib-ilmining-buyuk-allomasi-abu-ali-ibn-sino-o-gitlarining-yosh-avlod-tarbiyasidagi-ahamiyati>

4. Abu Ali Ibn Sino. “Salomatlik sirlari” tibbiy risolalar. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. TOSHKENT – 2000. 174-b
5. F.E.Nurboyev. Sh.Sh.Tilloeva.D.B.Raxmatova. Ichki kasalliklar xalq tabobati fanidan “Ibn Sino ta`limoti” o`quv qo`llanmasi. 153-157-159-b